

MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARDA MA'SULIYAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Gulamov Jasur Baxodirovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi

Mazkur maqolada bugungi ta'lif-tarbiya tizimini isloq qilish borasidagi amaliy harakatlar davrida «mas'uliyat» fenomeni yoshlar ijtimoiy hayoti bilan bevosita bo'qliqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada pedagog olimlarning «mas'uliyat» tushunchasi borasidagi ilmiy qarashlari o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lif tizimi, ta'lif-tarbiya mas'uliyat, masofaviy ta'lif, talaba, kutubxona fondi, axborot bazalari, elektron resurslar, pedagog, kompetenlilik.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ ПРИ ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Гуламов Джасур Баходирович,

Преподаватель кафедры «Педагогики и психологии» Узбекского государственного университета
мировых языков

В данной статье научно и теоретически анализируется, что феномен «ответственности» напрямую связан с социальной жизнью молодежи в ходе практической работы по реформированию действующей системы образования. Также в статье рассматриваются научные взгляды педагогов относительно понятия «ответственность».

Ключевые слова: система высшего образования, образовательная ответственность, дистанционное образование, студент, библиотечный фонд, информационные базы, электронные ресурсы, педагог, компетентность.

CONTENT OF FORMATION OF RESPONSIBILITY SKILLS IN STUDENTS DURING DISTANCE EDUCATION

Gulamov Jasur Bakhodirovich,

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

This article scientifically and theoretically analyzes that the phenomenon of "responsibility" is directly related to the social life of young people in the course of practical work to reform the current education system. The article also discusses the scientific views of teachers regarding the concept of "responsibility".

Key words: higher education system, educational responsibility, distance education, student, library collection, information bases, electronic resources, teacher, competence.

Respublikamizda Oliy ta'lif tizimida masofaviy ta'lif sharoitida talabalarda ma'suliyat ko'nikmalarini shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish asosiy strategiyalarni belgilovchi omil, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning zarur tarkibiy qismi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi ta'lif-tarbiya tizimini isloq qilish borasidagi amaliy harakatlar davrida «mas'uliyat» fenomeni yoshlar ijtimoiy hayoti bilan bevosita bo'qliqligi fonida yanada muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Har qanday jamiyatning rivojlanishi bevosita ta'lif tizimining ehtiyojlar asosida tashkil etilganligi, asosiy buyortmachi sifatida davlat tomonidan qo'yilgan talab, ta'lifni tashkil etuvchi muassasalarda boshqaruvning to'ri tashkil etilishi natijasida erishiladigan samaradorlik bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda ishtirokchi sub'ektlar manfaatlari asosiy o'rinn tutadi. [3;]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konцепцияsini tasdiqlash to'risida»gi Farmonida:

zamonaviy axborot-kommunikaciya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lif dasturlarini tashkil etish;
ma'ruza va amaliy mashfulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga ioklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lif jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lif muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

milliy elektron ta'lif resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lif resurslarini tarjima qilish ishlarni tashkil etish, ta'lif jarayonida elektron resurslar salmofini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga ioklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish masalalariga alohida urfu berib o'tilgan.

[2;]

SHu nuqtai nazardan qaraganda, ta'limiy islohotlar davrida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar mustaqil, o'z fikrini erkin ifodalay oladigan talaba-yoshlarni shakllantirish yo'lida quyidagilarga erishish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi:

talabalarni ta'lim xizmatlaridan foydalanish borasidagi huquqlarini kengaytirish;

talaba shaxsiga bo'lган hurmat; har bir talabaning ta'limiy manfaatlarini inobatga olish;

talabalarda ongli intizom va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lган e'tiborni kuchaytirish;

talabalarning to'laqonli psixologik va jismoniy, intellektual rivojlanishni ta'minlash imkoniyati kengaytirildi.

Alohiba e'tirof etib o'tish joizki, jahon amaliyotida oliy ta'lim tizimini internationallashtirish, ya'ni ta'limning tashkiliy-pedagogik bosqichlarini amalga oshirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etishning xalqaro xarakterga ega jarayonlarini muvofiqlashtirishga alohiba ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bu borada birlgina ERASMUS+ dasturlari oliy ta'limni internationallashtirish va isloh qilishga ko'proq ta'sir ko'rsatib, «bugungi kunda bunday dasturlar orqali talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yilishi, o'quv dasturlari va qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirilishi, kredit-modulъ tizimini joriy etilishi internationallashtirishni islohotlarning asosiy yo'nalishiga aylantirdi» [2;]

Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bosqichi bo'lган oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish xorijiy mamlakatlarda bu sohada qo'lga kiritilgan tajribalarni o'rganish, ularni tahlil etish, shuningdek, milliy-mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olish asosida ilfor tajribalardan respublika oliy ta'lim muassasalarida maqsadga muvofiq foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Ana shu maqsadda tadqiqot chofiga Rossiya, AQSH, YAponiya va Franiya davlatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi mazmuni bilan tanishildi. Oliy ta'lim bo'yicha etakchi xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribalarini o'rganish sohada bir qator ijobjiy an'analar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan:

oliy ta'limda raqobatbardosh kadrlarga nisbatan pedagogik yondoshuvning turli ko'rinishlari yozagaga keldi;

o'qituvchilar davlat siyosati bilan qo'llab-quvvatlanayotgan ijodiy izlanish erkinligiga ega bo'ldilar, Rossiya, AQSH, YAponiya va Franiya davlatlarida guberniya hamda shtatlar boshqaruvi asosida faoliyat iorituvchi xususiy muassasalar tashkil etilmoqda;

talaba va o'qituvchi munosabatlarda maqbul pedagogik tizimni tanlash imkoniyati berilmoqda, talaba yoshlarning onglilik darajasi o'smoqda;

talabada ta'lim olishga bo'lgan raqbatni yozagaga keltirishda individul metod va vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Haqiqatdan ham talabalarning o'qishga bo'lган shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish, har bir yigit va qiz ongida ta'limning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, o'qishga ijtimoiy va fuqarolik burchi deb qarashni shakllantirish" uzuksiz ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini takomillashtirish va uni jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarish yo'lida tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda nihoyatda muhimdir.

Mavzu mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan "Mas'uliyat" tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda "javobgarlik", "hisob bermoqlik" ma'nolarini anglatib, biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun javoblarlikni anglatadi. O'zbek tilida "mas'uliyat" tushunchasining muqobili sifatida "javobgarlik" tushunchasi bevosita qo'llaniladi. Masalan, davlat javobgarligi, huquqiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik va hokazo. [11].

Ayrim manbalarda mazkur tushuncha mohiyatini yoritishda uning "jamiyatga munosabatni xarakterlovchi" axloqiy kategoriya hamda "shaxsni o'z-o'zini boshqarish shakli" ekanligiga ham alohiba urfu berilgan. Jumladan, "Mas'uliyat shaxsning jamiyatga munosabatini xarakterlovchi, uning talablarini bajarishni yoksak shaxsiy-axloqiy xislatlarini namoyon bo'lishi odob-axloqning etik kategoriyasidir. SHaxsning mas'uliyati uning butun borliqqa bo'lgan munosabati, har bir aniq vaziyatga bo'lgan alohiba munosabati orqali namoyon bo'ladi" [8].

"Oliy ta'lim (lurat-ma'lumotnoma)"da bu tushuncha o'z xatti-harakatlarini tushunish va nazorat qilish sifatida talqin etilgan: "Mas'uliyat – shaxsni o'z-o'zini boshqarish shakli, o'zi amalga oshirgan xatti-harakatlari va ularning oqibatiga sabab deb bilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, atrof-muhitda va shaxsiy bo'lishdag'i o'z qobiliyatini tushunish va nazorat qilishda aks etadi" [4].

Ayrim manbalarda, shuningdek, "ijtimoiy mas'uliyat" tushunchasining mohiyatini yoritishga alohiba e'tibor qaratilgan: "Ijtimoiy mas'uliyat insonning o'zini tor xudbin manfaatlarga va umuman ijtimoiy manfaatlarga muvofiq tutishga moyillik, qabul qilingan me'yorlarga amal qilish mas'uliyatining ko'plab uchraydigan shakllaridan biri hisoblanadi" [6;].

V.Karimova, A.Umarov va M.Quronovlarning yondashuvlariga ko'ra, mas'uliyat qobiliyat bo'lib, shaxsning o'z hatti-harakatlari va faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilish sifatida namoyon bo'ladi. YA'ni, mas'uliyat "odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir" Bu o'rinda ham "odam" tushunchasining qo'llanilishiga e'tiroz bildirish mumkin.

Mualliflar R.X.Djuraev va S.T.Turunovlar tahlil etilayotgan tushunchani aniq va lo'nda ifodalashga urinishgan: "Mas'uliyat – bu ixtiyoriy shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyati natijasi uchun javobgarlikni his

etishidir”

Bizning nazarimizda mas’uliyat talabalar tomonidan muayyan hatti-harakat, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda, shuningdek, ma’lum guruh yoki shu guruh a’zolari oldidagi burchni to’la anglagan holda javobgarlikni his etishda namoyon bo’ladi. Demak, mohiyatiga ko’ra mas’uliyat turlari turlicha ko’rinishda namoyon bo’ladi bo’ladi:

- ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishdagi mas’uliyat;
- muayyan kasbiy faoliyatni bajarish bo'yicha shaxs zimmasidagi mas’uliyat;
- ma’lum guruh yoki uning a’zolari bo’lgan kishilar oldidagi mas’uliyat;
- jamiat fuqarosining ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishdagi mas’uliyati.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida talaba yoshlarda ilm olishga bo’lgan mas’uliyat hissini shakllantirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishni uch bosqichga bo’lib amalga oshirish jarayon samaradorligini ta’minlaydi degan xulosaga keldik. Bular:

- 1-bosqich – talabalar bilan o’zaro samimiyl, o’zaro hurmatga asoslanuvchi munosabatlarini tashkil etish.
- 2-bosqich – talabalar bilan o’quv faoliyatini tashkil etishda ishchanlik ruhidagi o’zaro munosabatni o’rnatish, ularda o’quv biluv faoliyatiga nisbatan “ongli intizomni” tarbiyalash.
- 3-bosqich – talabalar bilan o’quv faoliyatida mustahkam hamkorlik qilish va bu hamkorlik orqali asta-sekin mustaqil ravishda o’quv vazifalarini bajarish, talabalarga o’qishga bo’lgan mas’uliyat hissini mashq qildirish yo’llarini o’rgatish”.

Xulosa qilib aytganda Oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’lim sharoitida talabalarda ma’suliyat ko’nikmalarini shakllantirish quyidagi shartlarga amalga qilinishi ta’lim va tarbiya ishlarining samaradorligini ta’minlash, talabalarning har tomonlama kamolga etishlari uchun zamin yaratadi:

-oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, OTMlarning infratuzilmasi va ta’lim mazmunini ta’minlashga imkon beruvchi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;

-o’qituvchi va talabalar jamoasini tashkil etishda o’zaro hamkorlik va bir-birini tushunishning yangi usullarini topish;

-o’quv jarayonida o’yin va o’quv-bilish (darsdan tashqari sharoitlarda tashkil etiladigan va badiiy, mehnat, sport hamda o’yin xarakteridagi) faoliyatlarida to’laqonli birlikka erishish;

-talabalarda o’qishni davom ettirish istagini saqlab (magistratura, doktorantura) qolish va ularda o’qish malakasi asoslarini shakllantirish (shaxsiy iotuq va cheklanishlarni mustaqil aniqlash, o’z imkoniyatlari chegaralarini boshqalar – kattalar va tengdoshlari yordamida kengaytirish);

-talaba individualligining rivojlanishini pedagogik qo’llab-quvvatlash;

-barcha faoliyat turlarida talaba ijodkorligini rivojlanantirish uchun sharoit yaratish

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo’ljallangan YAngi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’frisida»gi Farmoni, 06/22/60/0082

2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanantirish konseptiyasini tasdiqlash to’frisida»gi Farmoni. QMMB. 9.10.2019. 06/19/5847/3887.

3.Askarov A.D, Oliy ta’lim muassasalarida sifat menejmentini integratsiyalashgan mexanizmlar asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent 2022

5.Musurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug’ati. / o’zbek, rus, ingliz tillarida / T.: “TURON - IQBOL”, 2019. 844

6.Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili; monografiya / T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020. 184

7.Kinjaeva G. S Talabalarni kasbiy - pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan diss. Toshkent-2020

8.Pulatov Dj.A. Bo’lajak psixologiya o’qituvchilarining amaliy kompetentligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan diss. Toshkent-2020

9.Uzakov I. A. Boshlanfich sinftalabalarida mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2008

10.Ziyayeva M. F. Oliy ta’lim tizimida pedagogik neologiya asosida talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish (talaba-qizlar misolida) Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023

11.O’zbek tilining izohli lug’ati: 80000dan ortiq so’z va so’z birikmasi. J-III-N-Tartibli/-T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 563 b